



O'ZBEK MAROSIM QO'SHIQLARI

Maxamatova Marjona Azamatjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

"vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrası

Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

marjonmaxamatova@gmail.com

+99890-408-24-01

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek marosim folklorinig qisqacha ta'rifi, kelib chiqish tarixi, marosim folklorining turlari va uning xalq hayotidagi tutgan o'rnini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Marosim folklori, mavsumiy marosim qo'shiqlari, oilaviy mavsumiy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari

Marosim inson moddiy va ma'naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan, tabiiy xatti-harakati, bezak (dekoratsiya) va matnga ega bo'lgan hayotiy "sahna" asaridir. Shu boisdan dunyoda o'z marosimlariga ega bo'lmagan birorta ham xalq yo'q. Binobarin, u muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki, har qanday marosim u yoki bu xalqning o'zida nisbatan to'la mujassamlashtirgan holda vujudga keladi.

O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixida rang-barang marosim musiqasini yaratdi. Ushbu musiqa bevosita marosimlar bilan bog'liq bo'lib, tarkibini tashkil qiladi. O'zbek marosim musiqasi tasnifi: mavsumiy marosim, oilaviy-maishiy marosim va diniy-ibodat musiqasi; har biri o'z janrlar tarkibiga ega bo'lib, o'ziga xos mavqei, musiqiy qonuniyatlari va ijro uslublari bilan ajralib turadi.

Marosim musiqasi folklor va mumtoz musiqasiga bo'lingan holda cholg'u va aytim yo'llaridan iboratdir. Cholg'u yo'llariga cholg'u aytimlar, usullar, ohanglar, kuylar va turkumlar kiradi; aytim yo'llari aytim, yig'i-yo'qlov va qo'shiqlardan iborat. Ijrochilik uslublari ham rang-barang: yakkasoz va ansambl cholg'u ijrochiligi; yakkanavoz, yakka-guruh, guruhli cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz usullarda. Marosim musiqasida an'anaviylik va badihago'ylik ustuvorlik qiladi. An'anaviylik ijroda ustun bo'lib, ijodiylik, ya'ni badihago'ylik ishtirok etmaydi. Bu janrlar birinchidan so'z magik qudratiga asoslangan – kinna, badik, avrashlar, qarg'ish, olqishlar, duolar; mavsumiy (Sust xotin, Choy momo) va mavsumiy-mehnat (Qo'sh haydash, Mayda, Ho'sh-ho'sh, Turay-turay) hamda diniy-ibodat (azon, Qur'on aytimi, mavlud). Badihago'ylikka moyil marosim musiqasi janrlari – bu oilaviy-maishiy (to'y-marosim qo'shiqlari va aza-motam marosim aytimlari).

O'zbek mavsumiy marosim musiqasi bevosita mavsumiy marosim va bayramlari, yil fasllari, tabiat hodisalari hamda mavsumiy-mehnat marosimlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Ular uchta guruhga bo'linadi.



1. Mavsumiy bayramona musiqasi qadimiy bayramlar – Navro‘z (bahor), Mehrjon (kuz) va Sada (qish) bilan bog‘liq.

2. Mavsumiy faslli musiqasi yil fasllari va tabiat hodisalari bilan bog‘liq – “birinchi gul” marosimi (Boychechak, Binafsha, Lola), Bahor keldi (bahor qo‘shiqlari); “yomg‘ir chaqirish” marosim (Sust xotin, Suv momo, Ashug‘lon), yoz qo‘shiqlari; “shamol chaqirish” va “shamol to‘xtatish” marosimlari, Yo haydar va Choy momo (kuz qo‘shiqlari); Qor keldi, Safar qochdi, “qor chaqirish” marosimlari (qish qo‘shiqlari).

3. Mavsumiy taqvim musiqasi – Ramazon yoki Yo robbim (Sharq taqvimining Ramazon oyi bilan bog‘liq marosim qo‘shiqlari).

Mavsumiy aytim va qo‘shiqlari jo‘rsiz, o‘ziga xos ijrochilik usullarida kuylanadi. O‘zbek xalq musiqasi mavzusi jihatdan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o‘rnining xilma-xilligi tufayli ikki guruhga bo‘linadi. Birinchisi, ma‘lum vaqt yoki noma‘lum sharoitdagina ijro etiladigan kuy aytimlar (Amaliy). Bular oilaviy marosim, mehnat qo‘shiqlari, mavsumiy marosim kuy-qo‘shiqlari, diniy navolar turli tantana va tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan kuy-qo‘shiqlar. Ikkinchisi, istalgan vaqtda va har qanday sharoitda ya‘ni barcha joyda ijro etiladigan kuy va qo‘shiqlar (Noamaliy).

Insonni hayotiy yo‘li bilan bog‘liq muhim sana va voqealar har bir xalqda o‘ziga xos tarzda urf-odat yoki marosimlar bilan nishonlanib turilishi an‘anaga aylangan. Ana shunday an‘analar sirasini oilaviy sharoiti o‘tkazilgan ommaviy tadbirlar tashkil etadi. Oilaviy marosimlarning turlari ham ko‘p bo‘lib, ular insonga umri davomida yo‘ldosh bo‘lib keladi. Xususan, o‘zbek xalqida beshik to‘yi, muchal to‘yi, xatna to‘yi (sunnat) to‘yi, nikoh to‘yi, motam marosimi kabi oilaviy marosim turlari mavjuddir. Ushbu marosimlar garchand “oilaviy” deb atalsa-da, ammo, oddatda, ularda qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, do‘stu-birodarlar qatnashishlari mumkinligi evaziga ommaviy tus oladi.

Oilaviy marosimlarda musiqa muhim o‘rin tutadi. Bunda ham aytim, cholg‘u musiqasi qo‘llanib, ularning badiiy vazifalari o‘zaro farqlidir. Jumladan, to‘y marosimlarida karnay, surnay, nog‘ora va doiralardan iborat cholg‘u ansambli ishtirok etib, u bir vaqtning o‘zida ham badiiy tinglov, ham axborot vositasini bajaradi. Chunki bu ansambl bir tomondan, uzoq masofaga taraluvchi kuchli sadolanishi bilan aholiga to‘y boshlanganligidan darak bersa, ikkinchi tomondan, ansambl ijrosidagi jozibali kuy-navolar ko‘tarinki kayfiyat tug‘diradi, hamda raqs o‘yinlariga chorlaydi va unga jo‘r bo‘ladi. Aytim vositasida o‘zgacha bo‘lgan, lekin muhim vazifa amalga oshiriladiki, shu boisdan asosiy diqqat-e‘tiborni shu jihatga qaratamiz. Demak, aytimlar vositasida har bir marosimning maqsadi yuzaga chiqa boshlaydi. Zotan bunday aytimlar o‘zida ham marosim “qahramoni”ning umumlashma siymosini, ham ommaning shu marosim jarayoniga munosabatini mujassam etadi.

O‘zbek oilaviy-maishiy marosim musiqasi uch guruhdan iborat bo‘lib, to‘y marosimi, aza-motam va maishiy marosim musiqasiga bo‘linadi. To‘y marosim musiqasi bevosita beshik to‘y, sunnat yoki o‘g‘il to‘yi, muchal to‘yi hamda nikoh to‘ylari (qiz chiqarish va o‘g‘il uylantirish) bilan bog‘liq, uning asosiy janrlari – Jar, Yor-yor, O‘lan, Muborak, Qutlov to‘y.





marosimning ma'lum jarayonlari bilan bog'liq holda aytilgan va ma'lum funksiyalarni bajargan (chorlov, kuzatish, kutib olish, tabrik, qutlov, nasihat, to'y boshlovi va yakuni), ular musiqa folklori va mumtoz musiqa namunalaridan iborat. Ijro uslublari rang-barang (aksariyati cholg'u jo'rligida) va lokallik xususiyatlaridan iborat (erkaklar Yor-yori, Shomuborak, Naqsh, Mavrigi, Qarsak, To'y boshlovi va To'y javobi). Aza-motam marosimlarining asosiy janri – bu yig'i (asosan ayollar tomonidan yakka yoki guruh tarzida, cholg'usiz ijro etiladi). Janrlari – yo'qlov, ovoz solish, marsiya va sadr. Har biri o'z mavqei va ijrochiligi bilan ajralib turadi. Maishiy marosim musiqasi davolash marosimlari bilan bog'liq, uning asosiy janri – bu badik (cholg'usiz, yakka, rechitativ holda ijro etiladi).

Yig'i – turli vaziyatlarda kelishi mumkin bo'lsa-da, lekin uning janr sifatida hozir bo'lishi asosan oilaviy marosim, xususan motam marosimi, azada to'liq amlga oshiriladi. Zotan yig'i motam marosimida qo'llanadigan asosiy janr bo'lib, yaqin kishining (oila a'zosining) vafoti tufayli bildirilgan chuqur qayg'u, hayajonli achinish, alamli dard kabi tuyg'ularning mujassam ifodasidir. Shu bilan "marhum bilan tiriklar, yig'layotgan va yig'lamayotganlar o'rtasida ruhiy munosabat o'rnatish ham yig'ining muhim vazifasi sanaladi". Motam marosimi bir yilga qadar davom etadigan urf-odatlarini o'z ichiga oladi, unda yig'i-yo'qlovlar yil davomida marhumning yaqinlari (asosan xotin-qizlar) tomonidan aytib turiladi. Yig'ilarga xos belgilar qatorida she'riy misralarning qofiyasiz bo'lishini, ularning mazmuni, vaziyatiga badiha etilishini, ohanglarning quyi yo'nalishda bo'lishi kabilarni ta'kidlash mumkin. Shuni ham aytish lozimki, yig'i ohanglari oilaviy marosim aytimlarining muhim tasnifiy sifati bo'lib, ijro vaziyatiga ko'ra "vidolashuv", "xayrlashuv" semantik-mazmunini anglatadi. Ammo to'y marosimlarida "Yig'i" aytimi tabiiy holda bo'lmay, balki badiiy tus olganligini ko'ramiz. Uning yorqin namunalari nikoh to'yiga oid "Yor-yor"larda uchraydi.

Yor-yor qo'shig'i kelinni kuyovnikiga uzatib borish jarayonida ayollar tomonidan ijro etiladi. Uni aytish vaziyati esa qizning ota uyi, yaqin qarindosh-urug'lari, oila a'zolari bilan xayrlashuvidan boshlanib, to kuyov xonadoniga yetgunga qadar davom etadi. Garchand yor-yorni kelin kuylamasa-da, biroq aslida bu aytim uning umumlashma siymosiga bevosita daxldordir. Uning mazmunida ayollar kelinni ovutgan bo'lishib (yig'lama qiz, to'y senniki, ostonasi tillodan, uy yenniki), pand-nasihatlar qilishadi, qizning otasiga "ta'na" so'zlari ham aytgan bo'lishadi (o'z qizini tanimay sotgan otam yor-yor) va hokazo. Ammo yor-yorlarning favqulotda ta'sirli ekanligi ularda bir vaqtning o'zida ikki turli holat – ham mungli ham bayramona shodiyonalik kayfiyatlari mujassam etilganligi bilan tavsiflanadi. Yig'ining badiiy in'ikosi aytim kuy-ohanglarida, ommaviy shodiyonalik holati esa doira usulida zuhur bo'ladi. Xususan, xalqimiz orasida "Toshkent yor-yori" nomi bilan mashhur aytim quyi yig'i misolidan ma'lum bo'lgan III-II-I pardali quyi oqim ohangidan uchib chiqadi.⁴⁴ Aytimning umumiy tuzuk tovush qatori mungli oltilik (kichik seksta) doirasini qamrab olgan bo'lib, bunda III parda tuzukning yarim tayanchi, I parda esa asosiy tayanch tovushi bo'lib belgilanadi. Shu bilan birga, doyra usuli raqsbop va "sho'x" (o'ynoqi) usullarga o'lchov –

⁴⁴ O'XM, Pt. 231 bet.





ritmi jihatidan hamohangdir. Ba'zi joylarda, masalan, Farg'ona an'anasida, yor-yorlarni kuyov jo'ralar ham ijro etishadi.

Nikoh to'yi marosimida an'anaviy ijro etib kelinadigan qo'shiqlaridan yana biri – “Kelin salom”dir. Ushbu qo'shiqni aytish vaziyati kelinni kuyov xonadoniga qadam qo'yishi bilan yuzaga kelib, bunda kuyovning ota-onasiga qarindosh-urug'lariga va qo'ni-qo'shnilariga kelin nomidan ma'lum kuy-ohanglarida salom aytib turiladi, kelin esa egilish orqali salomini bildirib turadi. Kelin salomlarda hazil-mutoyibali, goho payrovli so'z-iboralarga boy she'riy bandlar qo'llanib, har bir band “salom” aytish bilan yakunlanib turadi. Kuy nuqtayi nazaridan qaralganda ularda ham mungli uchlik (III-II-I pardali) ohangi asos bo'lganligi ma'lum bo'ladi. Ayrim mahalliy an'analarda, jumladan, Toshkent an'anasida “Kelin salom” nikoh to'yining ertasi kuni o'tkazilib, “salomlar”, odatda, kuy-ohanglarisiz o'qiladi.

Mehnat qo'shiqlari – xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalaridan birini tashkil etadi. Bu turdagi aytimlar inson faoliyatining turli jabhalari (masalan, yer haydash, tegirmon yanchish, ip yigirish va hokazo)da ijod etilgan bo'lib, turfa ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, bu aytimlar mehnat jarayonini bir maromda uyushqoqlik bilan bajarishga ko'mak berishi qatorida yana mehnatchi qalbiga ko'tarinkilik kayfiyatini jo qilgan, ruhiy dalda bo'lib xizmat qilgan. Mehnat aytimlarining ijtimoiy ko'lami uzoq o'tmishda yashagan avlod-ajdodlarimiz uchun yanada keng bo'lgan. Bu toifa aytimlari turli topinish va e'tiqodlar bilan bog'liq rasm-rusm va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida ham namoyon bo'lib kelgan. Har holda bizga qadar yetib kelgan manat aytimlari misolida shunga ishora etuvchi alomatlar saqlanib qolganligini aytishimiz mumkin. Ammo shuni ham inobatga olmoq kerakki, xalqimizning dunyoqarashida sal kam bir yarim ming yil vaqt mobaynida sodir bo'lgan o'zgarishlar natijasida aksariyat mehnat qo'shiqlari ma'lum transformatsiyaga uchragan, ba'zilari esa (muayyan mehnat turlarining ijtimoiy ahamiyati o'z kuchini yo'qotishi barobarida), umuman unutilgandir.

Hozirda bizga ma'lum bo'lgan mehnat qo'shiqlarini ta'riflashga kirishar ekanmiz, ularga xos quyidagi tasnifiy belgilarni alohida ko'rsatib o'tamiz:

1. Mehnat qo'shiqlarida jo'rsozlik vazifasini bajaruvchi musiqiy cholg'ular qo'llanilmaydi;
2. Ularning kuy-ohang kichik ovoz (kvarta, kamroq-kvinta) doirasi bo'lib, mehnat mazmuniga bog'liq she'riy to'rtliklar asosida yakkaxon tomonidan aytiladi;
3. Mehnat qo'shiqlarida she'riy bandlar oldidan yoki ulardan so'ng mustaqil naqarotlar deyarli qo'llanilmaydi, ammo band misralariga ulanib keluvchi maxsus takroriy so'z-iboralar (masalan, xo'sh-xo'sh, turey-turey, mayda-mayda va hokazo) qo'llanishi pirovardida naqarotsimon ahamiyat kasb etishi mumkin;
4. Ritm vositasi yetakchi omillardan biri bo'lib, “yetilik” bo'g'in-ritm tuzilmasi yetakchi o'rin tutadi;
5. Aytim kuylarida nutqdosh va so'zdosh ohanglar birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Bajarilayotgan mehnat turiga ko'ra ta'riflanayotgan aytimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:



- 
1. Chorvadorlik qo'shig'i;
 2. Dehqonchilik qo'shig'i;
 3. Hunarmandchilik qo'shig'i.

Chorvadorlik qo'shig'i aholining chorvachilik bilan bog'liq turmush tarzi va mehnat jarayonida shakl topgan. Ularning bizgacha yetib kelgan namunalari asosan "sog'im qo'shiqlaridan" iborat, ya'ni bu aytimlar sigir, biya, tuya, echki kabi uy hayvonlariga sog'ish paytida kuylanadi. Sog'im qo'shiqlarining turli xillari va shunga muvofiq nomlari ham mavjud. Masalan, qora molni sog'ishda "Xo'sh-xo'sh", qo'y echkilarni sog'ishda "turey-turey", "churey-churey" kabi ataluvchi maxsus aytimlar kuylanadi. Mazkur nomlar esa shu aytimlarda naqorot singari takror bo'luvchi so'zlardan oligan bo'lib, sog'ilayotgan jonivorlar tinchlashtirish, erkalatish, iydish va boshqa maqsadlarda qo'llanadi. Sog'im qo'shiqlari odatda to'rtlik (kvarta) yoki beshlik (kvinta) pardalari qamrovida ohista kuylanadi. Bunda kuy-ohanglari asosan yonma-yon joylashgan pog'onalar bilan sadolanadi. Bu kabi xususiyatlar yuzaga kelishini esa aytim vaziyati va undan ko'zlangan asosiy maqsad taqozo etadi-sog'uvchi jonivorni mayin tovushlar bilan iydish, ko'p sut sog'ib olish kerak.

Dehqonchilik qo'shiqlari ham mehnat aytimlarining salmoqli qismini tashkil etadi. Ularga oid namunalar esa dehqonchilikning turli faoliyatlari bilan bog'liq holda ijod etilgan. Jumladan, yer haydash paytida "Qo'sh haydash" qo'ylangan bo'lsa, hosilni o'rib olishda "O'rim qo'shig'i", xirmon yanchig'ini esa "Xo'p mayda" yoki "Mayda, mayda" qo'shiqlari aytilgan. "Qo'sh haydash" qo'shig'i xo'kizga qo'shilgan omochni boshqarib borayotgan dehqon tomonidan kuylanadi. Unda she'riy to'rtliklar mazmun jihatdan vaziyatga dahldor holda (masalan, dehqonning yer haydash mehnati bilan bog'liq tashvishlari, hayvonga munosabati, mehnat mashaqqati va hokazo) badiha etilgan. Ushbu qo'shiq sog'in aytimlaridan farqli o'laroq baralla ovoz bilan aytilishi mumkin. Chunki dehqon qo'shiq vositasida o'ziga va ho'kiziga dalda berishni maqsad qiladi, hamda mehnat ishtirokchilari harakatini o'zaro mutannosib bo'lishga ko'mak bergan bo'ladi. "Qo'sh haydash" aytimi "savol-javob" tarzini yodga soluvchi ikki so'zdosh xususiyatli ohang tuzilmalaridan iborat.

Mehnat jarayoniga mansub aytimlarning yana bir turkumini hunarmandchilik qo'shiqlari tashkil etadi. Bu namunalar asosan charh va ip yigirish, gilam to'qish, do'ppi tikish kabi mehnat vaziyatlari bilan xotin-qizlar ijodi bo'lib, chorvadorlik va dehqonchilik qo'shiqlariga nisbatan keyinroq shakllangandir. Binobarin, ularda mehnat aytimlari uchun yangi bo'lgan badiiy jihat va xususiyatlarni kuzatish mumkin. Biroq shuni ham inobatga olmoq kerakki, bizga qadar yetib kelgan hunarmandchilik aytimlari turli tarixiy davrlarga taalluqli badiiy va boshqa unsurlarni namoyon etadi bu hol ularning she'riy mazmunidan ham sezilib turadi. Chunonchi, aytimning nisbatan ko'hna namunasi mavzu jihatdan vaziyati bilan qat'iy cheklanishi kuy-ohanglari esa yuqorida ko'rib o'tilgan mehnat aytimlari sadolariga yaqinligi va unda yettilik bo'g'in-ritmi qo'llanganligi bilan tavsiflanadi.

O'zbek xalqining uzun o'tmishi davomida turli marosim va urf-odatlar shakllangan bo'lib, ularda xalqimizning dunyoqarashi, hayotiy voqelikka munosabati, orzu-istaklari va umuman, ma'naviy dunyosi o'ziga in'ikos etilgandir. Shuningdek ko'p asrli tarix jarayonida,



xalqimizning dunyoqarashi bilan bog‘liq o‘zgarishlar ham bo‘lib turganki, buning oqibatida ba’zi marosimlar unitilib yuborilgan. Ana shunday marosimlarning aksariyati ko‘hna hayotga taalluqli bo‘lib, yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog‘liq holda o‘tkazilar edi. Folklorshunos olimlarimizning bergan ma’lumotlariga ko‘ra to‘rt faslga oid quyidagi marosimlar o‘tkazilgan:

- a) Qish faslida – Yas – yusun, gap – gashtak;
- b) Bahor faslida – Navro‘z bayrami, Shox moylar, Sust Xotin;
- d) Choy Momo;
- e) Kuz faslida – Baraka. Shamol chaqirish.⁴⁵

Mavsumiy marosim qo‘shiqlarning eng ko‘p namunalari go‘zal bahor fasli va undagi asosiy sana – Navro‘z bayramiga bog‘liq ijod etilgan. E’tiborli joyi shundaki, bu toifa namunalar asosan bolalar folklori tarkibida bizgacha yetib kelgan. Chunki bolalar ham kattalar qatorida aksariyat marosimlarda qatnashib kelganlar. O‘rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul etishi munosabati bilan g‘ayri e’tiqodga asoslangan marosimlar o‘zining ijtimoiy mohiyatini yo‘qota boshladi. Ammo bir qator marosimlarning ma’lum voqelik o‘yinlariga asoslanganligi pirovardida bolalar tabiatiga nihoyatda mos edi va shu jihatdan ham ular faoliyatida saqlanib qolgan.

Mavsumiy marosim aytimlarida erishilgan muhimlardan birini yangi sifatli kuy-ohanglari tashkil etadi. “Yangi sifat” mazmunida sakrama ohanglar tushunilib, ularning kelib chiqishi bahor mavsumi va Navro‘zni daraklash mazmuni bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, o‘tmishda bahor elchilari sifatida ayrim qush (laylak, turna, qaldirg‘och) va ko‘klam o‘simliklari (boychechak, binafsha) alohida e’zozlangan, xatto, ular bilan bog‘liq turli ishonch va qarashlar ham shakllangan. Masalan, erta bahorda laylakni ko‘rish baxtdan nishona bo‘lsa, laylak uchib kelgan tomondan kelgan odam qishloqqa qut-baraka keltiradi, deb e’tiqot qilingan. Turnalar ham ko‘p narsadan “darak” bergan. Chunonchi, barvaqt uchib kelgan turna erta bahorni daraklasa, pastlab uchgan turna rizq-ro‘zg‘or unumli bo‘lishini anglatgan va hokazo. Irimga ko‘ra, bahor elchilarini birinchi bo‘lib ko‘rgan bu haqda boshqalarni ham tezroq xabardor etish lozim edi. Shu maqsadda “xushxabarchilar” baland joylarga chiqib maxsus xayqiriqlar ila atrofga jar solishgan. Xushxabarni eshitgan kattayu-kichik to‘planishib, bu haqda qishloqma-qishloq, mahallama-mahalla “jar solib” yurishgan. Shunga o‘xshash vaziyat ko‘klam o‘simliklarni unib chiqishi bilan ham bog‘liq yuzaga kelgan. Chunonchi, Navro‘z kunining darakchisi bo‘lgan boychechak (chunki uning unib chiqishi Navro‘z kuniga to‘g‘ri keladi) o‘simligini qir-adirlardan topib kelganlar va xonadonma-xonadon yurishib boychechak aytimini “jar solishgan”. Uy egalari jarchilarga turli taom va hadiyalar berishgan. Binobarin, sakrama ohanglar huddi ana shu jar solish vaziyatida shakl topgan edi. Jar solishning quyidagi in’ikosi bo‘lgan bu toifa ohanglarni shartli ravishda “jarchi ohanglar”, “darakchi ohanglar” yoki “xabarchi ohanglar” kabi atash mumkin. Jarchi ohanglar asosan mehnat aytimlarida yetakchi bo‘lgan yondosh pardalar bilan omuxta kelib, to‘rt parda (sof kvarta), ba’zan esa besh parda oralig‘ida tovush sakrashlarini tashkil etadi. Odatda, sakrash

⁴⁵ O‘zbek folklori ocherklari I tom-Toshkent, Fan, 21985, 155-156 bet.



nuqtasi tuzukning markaziy pardalaridan biri (IV goho V pog'ona)ga o'rtnashgan bo'lib, ham quyi (IV-I; V-II), ham yuqori (IV-VII; IV-VIII) yo'nalishda amalga oshiriladi.⁴⁶

Diniy-ibodat marosim musiqasining asosiy xususiyatlari – aytim yo'li, original tilga tayangan va talqin etilgan (arab tili, uning leksikasi), an'anaviylik, cholg'usiz, mumtoz musiqa namunalari, professionallik, verballik, o'ziga xoslik ijro uslubi. Asosiy janrlari – Azon, Qur'on aytimi (tilovat, qiroat, tajvid), Mavlud (diniy-motam marosimi aytimi), Zikr (zikr aytimlari turkumi) hamda diniy g'azallar bilan bog'liq ashula yo'llari (munojot, na't, qalandar, xonaqoi va hokazo, ijro uslubi yakkanavoz cholg'u jo'rligida). Zikr turkumi tuzilishi: Kirish, asosiy qismlari – Taqbir, Yakzarb, Duzarb, Chorzarb, Mastona va Yakkaxonlik, oralig'ida Chopqin aytimlari ijro etiladi. Ijrochiligi yakka-guruhli, kuylari va usullari rivojlangan va poliritmli. Davolanish marosimi shomonlik an'analari bilan bog'liq. Ijrochi – shomon- baxshi (so'z magiyasi, aytim va doira usullari). Kuylari kalta (uch-to'rt tovushdan iborat), usuli ravon va sodda. Ijro boshidan to yakunigacha bir miyorda, kuyda va usulda, ovoz tembri va dinamikasi o'zgarilmagan holda, an'anaga bo'ysingan. Asosiy janri – Ko'ch, Ko'chirik, Qaytarma, Jaxr (ijro jarayonida ma'lum atribut (taspih, pichoq, arqon va b.)lar qo'llanadi).

Marosim va marosim musiqasi zamonaviy etnik madaniyatining ulkan qismini tashkil etadi. Xalq marosimlarida inson hayotining tarixiy davri va unga xos talablari, e'tiqodlari hamda jamiyatning ijtimoiy-moddiy va ma'naviy yutuqlari aks etgan. Turli marosimlarni amalga oshirish jarayonida insonlarning o'zaro munosabatlari o'z ifodasini topadi. Mustaqillik davrida xalqimizning istiqloлга erishish munosabati bilan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarni tiklash; o'z tarixini, ma'naviy va madaniy merosini, jumladan, musiqa merosini atroflicha o'rganish hamda undan bahramand bo'lish kabi masalalari katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda marosimlarni (an'anaviy, o'zgarilgan, qayta tiklangan), ular bilan bog'liq marosim musiqasini o'rganish va hayotga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Xalqning yashash tarzi, tafakkur va e'tiqodlarini tadqiq etishda milliy musiqa folklori, ayniqsa, marosim qo'shiq va aytimlari tarixiy vositalar sifatida qimmatli manbaga aylanib kelmoqda. Xususan, keng qamrovli o'zbek marosim musiqasida til, an'ana va musiqiy qoidalarining ming yillik uyg'unlashuv jarayonlarini o'zida mujassam etgan.

Xulosa qilib aytganda marosim va marosim musiqasi zamonaviy etnik madaniyatining ulkan qismini tashkil etadi. Xalq marosimlarida inson hayotining tarixiy davri va unga xos talablari, e'tiqodlari hamda jamiyatning ijtimoiy-moddiy va ma'naviy yutuqlari aks etgan. Turli marosimlarni amalga oshirish jarayonida insonlarning o'zaro munosabatlari o'z ifodasini topadi. Mustaqillik davrida xalqimizning istiqloлга erishish munosabati bilan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarni tiklash; o'z tarixini, ma'naviy va madaniy merosini, jumladan, musiqa merosini atroflicha o'rganish hamda undan bahramand bo'lish kabi masalalari katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda marosimlarni (an'anaviy, o'zgarilgan, qayta tiklangan), ular bilan bog'liq marosim musiqasini o'rganish va hayotga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir. Xalqning yashash tarzi, tafakkur va e'tiqodlarini tadqiq

⁴⁶ Navro'z. Tuzuvchilar: T.Mirzayev, M.Jo'rayev. Toshkent, Fan, 1992, 85-90 bet.



etishda milliy musiqa folklori, ayniqsa, marosim qo‘shiq va aytimlari tarixiy vositalar sifatida qimmatli manbaga aylanib kelmoqda. Xususan, keng qamrovli o‘zbek marosim musiqasida til, an‘ana va musiqiy qoidalarining ming yillik uyg‘unlashuv jarayonlarini o‘zida mujassam etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev R. O‘zbek mumtoz musiqasi. Toshkent, 2008 y.
2. O.Ibrohimov. O‘zbek xalq musiqa ijodi. Metodik tavsiyalar. Toshkent: 1994 y.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. Toshkent: 1986 y.
4. Olimboyeva K. O‘zbek ayoli hayotida musiqa. Toshkent: 1991 y.
5. K.Olimboyeva (A.Kozlovskiy tahriri ostida) “25 o‘zbek xalq qo‘shig‘i”. San’atshunoslik ilmiy-tekshirish instituti. Toshkent. 1955.
6. F.Karomatov. O‘zbek xalqi musiqa merosi. (Yigirmanchi asrda) . Birinchi kitob.Toshkent. 1962-y.

